Qishloq aholisi hayoti va ijtimoiy muammolarining hal etilishi ham qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zi mamlakatlarda o'rmon xo'jaligi ham qishloq xo'jaligi tarkibiga kiritiladi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdagi yuksak natijalar tufayli O'zbekiston MDH davlatlari



orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yuqori sur'atlarda ishlab chiqarayotgan mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [8]¹.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan oqilona hamda samarali foydalanish, ularni asrash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Zero, yer insonni boqadigan, kiyintiradigan muqaddas manba bo'lsa, suv tiriklikning bebaho in'omidir. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektarni tashkil etadi. Shundan 3,2 million gektari sug'oriladigan ekin maydonlari bo'lib, ularda aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun esa zarur xom ashyo yetishtirilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimiz aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan ortib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifalarga o'tkazilishi hamda global iqlim o'zgarishining kuchayishi natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari hajmi 24 foizga kamaygan, o'rtacha yillik suv ta'minoti esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqargan. Shu bois yurtimizda ushbu jarayonlarning salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida izchil choralar ko'rilmoqda.

Xususan, sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holatini yaxshilash va suv ta'minotini barqarorlashtirish maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida 2008–2017-yillar mobaynida 1,7 million gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti yaxshilandi, 2,5 million gektar maydonning meliorativ holati sezilarli darajada tiklandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosini mustahkamladi. Hujjatda respublikamizda yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya tizimlarining yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqqan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi, qo'llanilayotgan qishloq xo'jaligi texnologiyalarining mukammallik darajasi va intensivlik ko'rsatkichlariga bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon nafaqat ishlab chiqarish rentabelligining optimal darajasini ta'minlaydi, balki tuproq unumdorligini oshirishga ham xizmat qiladi (Merkulova, 2025). Merkulova va Vyazov (2015) o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy samaradorlikni baholashda ham qiymat, ham tabiiy ko'rsatkichlardan foydalanish zarurligini asoslab berishadi. Mualliflar ushbu baholashda asosiy mezon sifatida yer rentabelligi, yer sig'imi va yer qaytimi kabi ko'rsatkichlarni ilgari surgan bo'lib, ularni tarmoq va faoliyat turlari bo'yicha hisoblangan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi bilan to'ldirgan (Merkulova, 2015). Shuningdek, ular yerni shudgorlash darajasi, hosildorlik, o'g'itlash hajmi hamda ma'lum bir ekin turini bir gektarga ekishdan olinadigan ozuqa moddalari miqdorining iqtisodiy ahamiyatini e'tirof etishadi.

Xanbaev va Daibova (2016) tadqiqotlariga ko'ra, yerdan foydalanish iqtisodiy samaradorligining asosiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida joriy va taqqoslanadigan narxlarda yer maydoni birligiga to'g'ri keladigan tovar mahsulotlari hajmini baholash maqsadga muvofiqdir (Xanbaev, 2021). Bu yondashuv ishlab chiqarishning natijaviyligini oshirishda resurslardan oqilona foydalanish va hosildorlikni barqaror ta'minlash imkonini beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sug'oriladigan hamda lalmi yerlar, tog', tog'oldi va cho'l-yaylov hududlarining tuproq unumdorligini oshirish, suv va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, serhosil ekin turlarini yaratish va ularning birlamchi urug'chiligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali tabiiy ekotizimlarda ekologik muvozanatni saqlash, bioxilma-xillikni qo'llab-quvvatlash hamda suv sifatini yaxshilashga yordam bermoqda.

Suv ekotizimlarining sog'lomligi ularning ifloslantiruvchi moddalarni tabiiy ravishda qayta ishlash va suv organizmlarining hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini belgilaydi. Shu sababli, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan to'g'ri foydalanish, suv resurslarini muhofaza qilish siyosatini samarali amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bu jarayon suvning kimyoviy birikmalar bilan ifloslanish xavfini kamaytiradi, sanoat va maishiy ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan suv sifatini oshiradi hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

"O'zbekiston–2030" strategiyasida irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv infratuzilmasini takomillashtirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Jumladan,

1 S.N. Normurodov, I.N. Ziyadullayev, S.O'. Xoliqov, O'.A. Abdullayev, H.F. Dilmurodov. *FSS–2025. IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science*, 1535 (2025) 012028. DOI: 10.1088/1755-1315/1535/1/012028. URL: <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>



18,7 ming km yoki 66 foizi tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali qismini 13,1 ming km.ga (46 foizga) yetkazish, shuningdek, melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali sug'oriladigan yer maydonlaridagi sho'rlangan hududlarni 1,7 million gektargacha qisqartirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

Keyingi yillarda ushbu yo'nalishga davlat darajasida berilayotgan e'tibor O'zbekistonning suv resurslarini oqilona boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlash, suv sifatini yaxshilash va ekologik turizmni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy hamda xorijiy olimlarning yerdan foydalanish masalalarini tartibga solishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid hukumat dasturlari va yo'l xaritalari tashkil etadi.

Tadqiqot ishining uslubiy yondashuvi sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tizimli-funksional va dialektik o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish orqali namoyon bo'ladi. Bunda tahlil natijalari qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- agrosanoat majmuida band bo'lgan hududlardan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- agrosanoat majmuasida band bo'lgan yer resurslarini boshqarishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish;

- foydalanilmayotgan hududlarni iqtisodiy aylanmaga jalb etishning samarali mexanizmlarini joriy etish;

- qishloq xo'jaligini raqamli transformatsiya sharoitida agroinnovatsiyalarni joriy etish orqali resurslardan foydalanishni optimallashtirish.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini tartibga solish, ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlatning islohotchilik roli sezilarli darajada ortmoqda. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida izchil natijalar kuzatilmoqda. Ayni paytda qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish, sug'oriladigan maydonlarni saqlab qolish va ularning unumdorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Umuman olganda, agrosanoat tizimida suv resurslarini tejash, ekologik omillarni inobatga olish, fermerlar hamda qishloq xo'jaligi korxonalarining mas'uliyatini oshirish jamiyat oldidagi muhim burch hisoblanadi. Zero, bu yo'nalish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning kafolatidir.

Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi — ishlab chiqarish jarayonining barqaror faoliyatini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali aholining oziq-ovqatga, sanoatning esa xomashyo mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir [1]. Hozirgi kunda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste'moli 55–70 foizni tashkil etmoqda, chakana savdoda esa oziq-ovqat importi ulushi 40 foizdan ortiqni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligini erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida barqaror rivojlantirish uchun turli mulkchilik shakllariga ega xo'jalik yuritish tizimlarini yaratish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'oriladigan maydonlar sifatini oshirish, moddiy-texnik resurslarni yangilash, ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qishloq xo'jaligining asosiy va aylanma fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mehnat bozorini rivojlantirish, investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) hajmini ko'paytirish, qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda xarajatlarni tejash orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash zarur.

Davlat siyosati doirasida qishloq joylarda servis xizmatlarini rivojlantirish, mahsulot va xizmatlar narxlarini iqtisodiy asosda belgilash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadlarini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning bozor shakllariga o'tildi hamda mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmog'i izchil ortib bormoqda.

Mamlakatimizda yiliga qariyb 20 million tonna meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi. Ushbu mahsulotlarni sanoat usulida qayta ishlash darajasi hozirda 15 foizni tashkil etmoqda, shundan 7–8 foizi eksport qilinmoqda. So'nggi yillarda infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlari olib borilayotgan bo'lsa-da, saqlash tizimining



to'liq quvvatda ishlamasligi sababli yig'im-terim va saqlash jarayonlarida 30 foizgacha mahsulot yo'qotilishi holatlari kuzatilmoqda. Shu bois sohadagi imkoniyatlardan oqilona foydalanish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash hajmini kengaytirish orqali oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatda 31 ta agrologistika markazi va 1 500 ta sovutkich omborlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu infratuzilmalarda jami yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining 4,5 foizigina saqlanishi mumkin, bu esa mavjud salohiyatga nisbatan hali past ko'rsatkich sanaladi. Shu sababli meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash quvvatlarini oshirish, yangi agrologistika markazlarini barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biridir.


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, meva-sabzavot mahsulotlarining 65 foizi, go'sht va sut mahsulotlarining esa 93–95 foizi dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa yerlarida yetishtirilmoqda. Shu bilan birga, ularni qayta ishlovchi korxonalar o'rtacha 50–60 foiz quvvatda faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda ushbu korxonalar faoliyatini takomillashtirish va ishlab chiqarish quvvatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Masalan, o'tgan yili meva-sabzavot mahsulotlarining 19 foizi, go'sht va sut mahsulotlarining 16 foizi sanoat darajasida qayta ishlangan. Bu ko'rsatkichlar yil sayin ortib bormoqda, bu esa qayta ishlash sohasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va xususiy sektor faolligini kuchaytirishning amaliy natijasidir.

Odatda uzum, qovun, tarvuz, qovoq va anor kabi ekinlarning urug'lari yig'imdan so'ng tashlab yuboriladi. Biroq xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu urug'lar qayta ishlanib, yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, bir kilogramm tarvuz urug'i yog'ining jahon bozoridagi narxi 28 dollar, anor urug'i yog'iniki esa 350 dollar atrofida. Shu bois O'zbekistonda ham ushbu urug'larni yig'ish, qayta ishlash va eksport qilish tizimini yo'lga qo'yish orqali yiliga 250 million dollarlik eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, 2019–2022-yillar davomida umumiy qiymati 8 trln 471 mlrd so'm bo'lgan 243 ta loyihani amalga oshirish va 9 544 ta yangi ish o'zni yaratish belgilangan. Bugungi kunga kelib, umumiy qiymati 459,3 mlrd so'm bo'lgan 42 ta loyiha ishga tushirilib, 958 ta yangi ish o'zni tashkil etildi.

So'nggi uch yil davomida tashqi bozorga yo'naltirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi uch baravar oshdi. Hozirda O'zbekiston 22 ta davlatga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqda (1-rasm).

2020 йил январь-март ойларида қишлоқ ва балиқчилик хўжалиги маҳсулотларининг асосий турларини ишлаб чиқариш



1-rasm. 2020-yil yanvar-mart oylarida qishloq va baliqchilik xo'jaliklari mahsulotlarining asosiy turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmlari va o'sish dinamikasi



Bu esa mamlakatning xalqaro oziq-ovqat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash korxonalarida amalga oshirilayotgan asosiy maqsad — mamlakatimizda yetishtirilayotgan mahsulotlarni o'z vaqtida yig'ib-terish, nobudgarchilikka yo'l qo'ymasdan saqlash, qayta ishlab, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini rivojlangan davlatlar darajasiga yaqinlashtirishdan iboratdir. Shu maqsadda yetakchi xorijiy davlatlarning ilg'or texnologiyalari joriy etilib, avtomatlashtirilgan va uzluksiz ishlovchi uskunalar bilan jihozlangan korxonalar barpo etilmoqda.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bilan bir qatorda, mavjud korxonalarni zamonaviy texnologiyalar asosida rekonstruksiya qilish ishlari ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu esa qayta ishlash sanoatining barqaror rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va mamlakat eksport salohiyatining yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Qayta ishlash yoki konservalashning asosiy maqsadi — keng ma'noda sabzavot va mevalarni sof holatda emas, balki tinch, ya'ni jonsiz holatda saqlash orqali ularni uzoq muddat davomida oziq-ovqat sifatida foydalanish imkoniyatini yaratishdir. Bu jarayon ortiqcha va uzoq pazandalik ta'sirisiz, inson organizmiga foydali, tabiiy moddalarga boy mahsulotlarni iste'mol qilishga sharoit yaratadi.


Konservalash ayniqsa rezavor, danakli mevalar, mevalik hamda bargli sabzavotlarni qayta ishlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'l bilan aholining yil davomida uzluksiz ravishda vitaminlar va boshqa foydali biologik moddalarga boy mahsulotlar bilan ta'minlanishi ta'minlanadi. Ma'lumki, deyarli barcha sabzavot va mevalar tez buziluvchan mahsulotlar turiga kiradi. Shu sababli ularning oziq-ovqat qiymatini, organoleptik (ta'm, hid, rang va tuzilma) sifatlarini saqlab qolish uchun zamonaviy texnologik qayta ishlash usullarini qo'llash zarur.

Zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlangan konservalangan mahsulotlarni oddiy sharoitlarda yoki ma'lum mikroiklimga ega omborlarda uzoq muddat saqlash imkoniyati mavjud. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, isrofgarchilikning oldini olish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahsulotlarni sof holatda saqlash va ularni konservalash — bir-birini to'ldiruvchi, yagona maqsadga xizmat qiluvchi ikki muhim yo'nalishdir. Ularning har ikkalasi ham aholining yil davomida meva-sabzavot mahsulotlari bilan to'liq ta'minlanishini ta'minlaydigan samarali usullar hisoblanadi.

Meva-sabzavotlarni qayta ishlash asosan agrosanoat korxonalarida keng miqyosda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, o'rta va kichik korxonalar ham joylardagi sanoat kooperatsiyalari tarkibida faoliyat yuritmoqda. Ularning ishlab chiqarish hajmi va texnik salohiyati bosqichma-bosqich kengaymoqda.

Xo'jaliklarning joylashuvi va ishlab chiqarish yo'nalishiga qarab, ularda turli xil qayta ishlash korxonalarini tashkil etish mumkin. Bu esa mahalliy xomashyoni joyida qayta ishlash, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda eksportbop tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi (2-rasm).



2-rasm. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasida ekin maydonlarining asosiy turlari bo'yicha taqsimlanishi (2020-yilga nisbatan o'sish dinamikasi bilan)

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashda konservalashning turli usullari keng joriy etilmoqda. Jumladan, quritish, tuzlash, sirkalash va jadal muzlatish kabi usullar eng samarali va amaliy ahamiyatga ega texnologik jarayonlar sirasiga kiradi. Ushbu yo'nalishlar mahsulotlarning tabiiy ta'mini, rangini va oziqaviy qiymatini uzoq muddat saqlab qolish imkonini beradi.



Kelajakda rivojlanishi zarur bo'lgan istiqbolli sohalar qatoriga tuzlash manzillari, meva-sabzavot kamptlari ishlab chiqaruvchi tseklar, murabbo va djem tayyorlash liniyalari, qandolatchilik tseklarining zamonaviylashuvi, shuningdek, muzlatish uskunalari, sabzavot va mevalarni qurituvchi tseklar hamda konserva korxonalari faoliyatining kengaytirilishi kiradi.

Mazkur yo'nalishlar nafaqat qayta ishlash tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki ichki bozorni sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, hamda eksport salohiyatini kengaytirish imkonini ham beradi.²

Qayta ishlash va konservalash jarayonlari meva hamda sabzavotlarda kechadigan biokimyoviy o'zgarishlarni to'xtatishga asoslanadi. Bu jarayon mahsulot tarkibidagi fitopatogen mikroflorani yo'qotish va mahsulotni tashqi muhit ta'siridan — ya'ni havo, yorug'lik va boshqa fizik omillardan himoya qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada mahsulotning tabiiy shakli, oziqaviy qiymati hamda organoleptik xususiyatlari uzoq muddat saqlanadi.

Konservalash usullari o'z mohiyatiga ko'ra fizik, mikrobiologik va kimyoviy turlarga bo'linadi. Ulardan fizik usullar amaliyotda eng keng qo'llaniladi va quyidagi texnologik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Iссиqlik bilan sterilizatsiyalash — konservalashning asosiy ishlab chiqarish usuli bo'lib, u sirkalash (marinovka) jarayonini, ya'ni sirka kislotasi qo'shilgan holda mahsulotni issiqlik yordamida sterilizatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

Qand yoki tuzlarning yuqori konsentratsiyasi hisobiga osmotik bosimni oshirish va shu yo'l bilan mikroorganizmlar faoliyatini to'xtatish. Bu usul mahsulotni tabiiy ravishda quritish orqali uzoq muddat saqlash imkonini beradi.

Past haroratlarda jadal muzlatish — mahsulot tarkibidagi mikroorganizmlar faoliyatini to'xtatish orqali uning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish imkonini beruvchi eng samarali usullardan biridir.

Nurlantirib sterilizatsiya qilish — ultrabinafsha, yuqori chastotali yoki radioaktiv nurlanish yordamida mahsulotni mikroorganizmlardan tozalash texnologiyasidir.

Filtrlash orqali sterilizatsiya qilish — maxsus mikrofiltrlardan o'tkazilgan sharbat yoki suyuq mahsulot tarkibidagi mikroorganizmlar va ularning sporalarini to'liq ajratib olish imkonini beradi.

Mazkur fizik usullar konservalash jarayonining eng ishonchli va ekologik xavfsiz yo'nalishlari hisoblanib, ular tabiiy mahsulot sifatini, foydali moddalarning miqdorini va iste'mol uchun xavfsizligini saqlashda muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, davlat byudjeti subsidiyalari asosida kredit tizimidan samarali foydalanish, hosilni sug'urtalash va boshqa iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar konservalash sanoatini modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ichki bozorni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.³

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining barqaror va jadal rivojlanishini ta'minlash mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, tarmoqda hali to'liq barqarorlikka erishilgani yo'q. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalardan foydalanish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini rivojlantirish orqali ushbu maqsadga izchil erishish mumkin.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va boshqa agrosanoat majmui korxonalari mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasi ham yuqori talablarga javob berishi lozim. Bu esa o'z navbatida, "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanini chuqur o'rganish va zamonaviy bilimlar bilan boyitish zarurligini taqozo etadi [2].

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida yer davlat mulki hisoblanadi. Bu tamoyil mamlakatimizning Bosh Qomusida aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy me'yor asosida egalik qilish munosabatlarining rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli shakllari vujudga keldi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xilma-xilligi ularning iqtisodiy manfaatlariga ko'ra shakllanadi, shuning uchun ham maqsadlari turlicha bo'lishi tabiiy holatdir. Biroq, ularning barchasiga umumiy jihatlar ham xos bo'lib, ular — mulk ob'ektlaridan oqilona foydalanish, ularni istiqbolli rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga jadal joriy etish kabi yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi.

Davlat mulkining mavjudligi zaruriyati iqtisodiy tizimdagi bozor nomukammalliklari bilan izohlanadi. Bunday "bozor kemtiklari" qatoriga tashqi samara, tabiiy monopoliyalar mavjudligi, axborot assimetriyasi va boshqa omillar kiradi. Shu bois iqtisodiyotda davlat aralashuvi darajasi va davlat mulki ulushi o'zgarib boradi. Har bir

2 G.A. Karieva, N.R. Asadullina, A.Kh. Baev, R.B. Azimov, S.A. Davlatov. *Development of the agricultural sector in ensuring food security of the Republic of Uzbekistan*. IOP Conf. Series: *Earth and Environmental Science*, 1535 (2025) 012014. DOI: 10.1088/1755-1315/1535/1/012014: <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012014>

3 S.N. Normurodov, I.N. Ziyadullayev, S.O'. Xoliqov, O'.A. Abdullayev, H.F. Dilmurodov. *FSS-2025*. IOP Publishing, IOP Conf. Series: *Earth and Environmental Science*, 1535 (2025) 012028. DOI: 10.1088/1755-1315/1535/1/012028: <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>



davr va mamlakat uchun bu o'zgarish iqtisodiy erkinlik va davlat ishtiroki o'rtasida maqbul muvozanatni topish, mikro va makroiqtisodiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi [3].

Qishloq xo'jaligida davlat mulkining zaruriyat sifatida mavjud bo'lishini quyidagi omillar belgilab beradi:

xususiy sektor faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan makroiqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni xususiy kapital uchun kam qiziqarli, lekin milliy iqtisodiyot uchun muhim tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash;

fan va texnika taraqqiyotining jadallashuvini ta'minlash hamda mamlakatning jahon xo'jaligidagi raqobatbardoshligini mustahkamlovchi, yuqori tavakkalchilikka ega kapital sig'imli loyihalarni amalga oshirish;

yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjudlarini saqlab qolish, mahsulot narxlarini ijtimoiy jihatdan maqbul darajada ushlab turish, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash;

milliy va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash;

shartnomalar va iqtisodiy kelishuvlarning bajarilishini kafolatlovchi huquqiy hamda institutsional shart-sharoitlarni yaratish.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida davlat mulki g'arb mamlakatlaridagi xo'jalik yuritish tizimlariga nisbatan o'ziga xos ustunliklarga ega. Bu holatni faqat davlat mulkini qisqartirish yoki xarajatlarning o'sishi bilan izohlab bo'lmaydi. Aslida, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, yagona iqtisodiy makon yaratish, hamda milliy iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat mulki ulushini ma'lum nisbatlarda saqlab qolish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni tabiiy ravishda davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo etadi. Chunki sog'lom raqobat muhiti davlat monopoliyasi bilan uyg'unlashmaydi, monopoliya esa bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga to'siq bo'ladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish natijasida iqtisodiyotda davlat ulushi kamayadi, bu jarayon natijasida mulk shakllari xilma-xillashadi — jamoa, fuqarolik va xususiy mulk shakllari kengayadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidagi eng muhim vazifa — davlat mulki monopoliyasini tugatish va uni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat edi".

O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida davlat mulki ulushi yildan-yilga kamayib bormoqda [4]. Ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligida davlat mulki hissasining eng katta pasayishi 1990–1994-yillarga to'g'ri keladi. Ushbu davrda tarmoqdagi davlat xo'jaliklari bosqichma-bosqich jamoa va shirkat xo'jaliklariga aylantirildi.

Natijada, davlat xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi 1991-yilda 34,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1996-yilga kelib 2,2 foizgacha kamaygan. Keyingi davrlarda ham bu tendensiya davom etgan, natijada qishloq xo'jaligida davlat korxonalari soni keskin kamaygan. Biroq bu jarayon iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga emas, balki tarmoqning diversifikatsiyasi, raqobat muhitining kengayishi va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi hukumati qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida navbatdagi muhim vazifalarni inobatga olib, mavjud masalalarning yechimini izchil amalga oshirmoqda, bu esa davlatning agrar sohada bosh islohotchi sifatidagi o'rni va mas'uliyatini yaqqol namoyon etadi. Hozirgi davrda respublika hukumatining asosiy e'tibori qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini yagona fan, texnika va innovatsion siyosat asosida rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunday yondashuv sohaning barqaror o'sishini ta'minlashda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hamda xalq farovonligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm-fan yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish barcha iqtisodiy muvaffaqiyatlarning asosiy kafolatidir. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash masalalariga tarixan alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mintaqaning ob-havo sharoiti yil davomida hamda bir kecha-kunduz ichida keskin o'zgarib turishi tufayli go'sht, sut, yog', baliq, tuxum kabi mahsulotlar harorat ta'siriga sezgir bo'lganligi sababli ularni to'g'ri saqlash va qayta ishlashning ilmiy asoslangan texnologiyalarini joriy etish zarurdir. O'zbekiston xalqining ko'p asrlik tajribasida mahsulotlarni saqlashning o'ziga xos an'anaviy usullari shakllangan bo'lib, sabzavot, don, meva, go'sht, qazi va tuxumni ko'mib saqlash, poliz mahsulotlarini osib saqlash, turli mevalardan — qovun, pomidor, uzum, rayhon, kashnich, jambil va qizil qalampirdan qoqi tayyorlash kabi usullar qadimdan keng qo'llanilib kelmoqda. Ushbu usullar xalq amaliyoti va tabiat sharoitlariga moslashgan bo'lib, zamonaviy saqlash texnologiyalarining shakllanishida muhim o'ringa ega. Bugungi kunda an'anaviy usullar zamonaviy texnika vositalari bilan uyg'unlashtirilib, sovutish tizimlari, vakuumli saqlash, tez muzlatish, hamda havo almashinuvi boshqariladigan omborlarning joriy etilishi mahsulotlarning sifatini saqlash, isrofgarchilikni kamaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini bermokda. Shu asosda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masalan, harorat va namlikni avtomatik nazorat qiluvchi tizimlarni o'rnatish, mahalliy tadbirkorlarni zamonaviy sovutkich



omborlari, qadoqlash va logistika markazlarini barpo etishga rag'batlantirish, an'anaviy saqlash usullarini ilmiy tahlil asosida modernizatsiya qilish va ularni zamonaviy konservalash texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga yo'naltirishda xalqaro sifat standartlariga mos saqlash tizimlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muxammadiev Jasur Nasirillo o'g'li, Abdusalomov Javoxir Tulkinovich, Nasimov Xasan Murodovich. Vajnost mikroapsul dlya skrytiya vkusov i zapaxov veshchestv. Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences, ISSN: 2660-4159, 336–338.
2. Khalatov A.A., Byerley A., Min S.K., Vincent R. Application of advanced techniques to study fluid flow and heat transfer within and downstream of a single dimple. Minsk: ITMO named after A.V. Lykov, 2021. – 20 p.
3. Karimov K.A., Akhmedov A.Kh., Kushimov B.A., Yuldoshev B.Sh. Justification, development of a new technology and design for drying seeds of desert fodder plants. International Scientific Conference "Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering" (CONMECHYDRO – 2020), April 23–25, 2020, Tashkent, Uzbekistan, pp. 1–10.
4. Kushimov R.X., Ergashev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent: "Extremum Press", 2021.
5. Ismoilov A., Murtazaev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent, 2013.
6. Коваленко С.Б., Козенко З.Н. Сельскохозяйственная кредитная кооперация. Москва: Финансы и статистика, 2022. – 446 с.
7. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Rashidov Sh., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2023. – 267 b.
8. S.N. Normurodov, I.N. Ziyadullayev, S.O'. Xoliqov, O'.A. Abdullayev, H.F. Dilmurodov. FSS–2025. IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science, 1535 (2025) 012028. DOI: 10.1088/1755-1315/1535/1/012028.: <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>
9. G.A. Kariyeva, N.R. Asadullina, A.Kh. Baev, R.B. Azimov, S.A. Davlatov. Development of the agricultural sector in ensuring food security of the Republic of Uzbekistan. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science, 1535 (2025) 012014. DOI: 10.1088/1755-1315/1535/1/012014. <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012014>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
